QASHQADARYO TURKMANLARINING TO‘Y-MAROSIM MADANIYATI VA UNING ETNIK XUSUSIYATLARI (XX ASR IKKINCHI YARMI – XXI ASR BOSHLARI)

Jurayev Sanjar Ramazanovıç
Termiz iqtisodiyot va servis unıversıteti Ijtimoiy fanlar kafedrası öqıtuvçisi
https://orcid.org/0009-0002-4306-8796
jurayevsanjar1983j@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo turkmanlarining XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlaridagi to‘y-marosim madaniyati va uning etnik xususiyatlari tarixiy-etnografik jihatdan o‘rganiladi. To‘y oldi, to‘y kunlari va to‘ydan keyingi marosimlar uch bosqichli o‘tish marosimi sifatida talqin qilinadi. Kelin sepi, kajava, kürte, gupba, baxshi ijrosi va qaytarma kabi unsurlarning ramziy ahamiyati hamda vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi tahlil qilinadi. O‘zbek va turkman marosim an’analarining o‘zaro ta’siri, mustaqillik davrida marosimlarni huquqiy tartibga solishning madaniy va iqtisodiy oqibatlari muhokama qilinadi. Manbalarning mahalliy dala dalillari bilan to‘ldirilishi zarurligi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo turkmanlari, to‘y, marosim, qaytarma, kajava, kelin libosi, kürte, gupba, sep, baxshi, etnomadaniy o‘zgarish.

KIRISH

O‘zbekistondagi turkmanlar soni barqaror o‘sib bormoqda. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, respublikada 1990-yilda 123 711, 2000-yilda 144 601, 2019-yilda 198 797 nafar turkman qayd etilgan, 2022-yilga kelib ularning soni 200 mingdan oshgan [6]. 2001-yil 7-mayda tashkil etilgan Respublika Turkman madaniy markazining Qashqadaryo viloyatidagi hududiy bo‘linmasi ham faoliyat yuritadi [6]. Bu raqamlar turkmanlarni respublikadagi yirik etnik ozchiliklardan biri sifatida ko‘rsatadi.

Qashqadaryo vohasi turkmanlarining etnografiyasi esa hanuzgacha parcha-parcha o‘rganilgan. Ularga bag‘ishlangan yagona maxsus monografiya – O. Jo‘raqulovning “Chandir turkmanlari” asari – 1992-yilda nashr etilgan [5]. Voha aholisining kundalik hayotiga oid so‘nggi doktorlik tadqiqotida turkmanlarning joylashuvi qayd etilgan, biroq ularning oilaviy marosimlari alohida tahlil qilinmagan [7]. Mazkur bo‘shliq maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Oila, nikoh va to‘y etnik o‘ziga xoslikni eng uzoq saqlaydigan sohalardir. Ko‘p millatli muhitda yashovchi kichik etnik guruh uchun to‘y nafaqat oilaviy voqea, balki o‘zlikni namoyish etish va

uni keyingi avlodga uzatish maydoni hamdir. Shu sababli bu sohadagi o‘zgarishlar etnik jarayonlarning umumiy yo‘nalishini ham ochib beradi.

Tadqiqot maqsadi – Qashqadaryo turkmanlarining to‘y-marosim madaniyatini va uning etnik belgilarini aniqlash, XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlaridagi o‘zgarishlarni izohlash. Bunda to‘yga tayyorgarlik, kelinni olib kelish, kelinning yangi oilaga qo‘shilishi, marosim libosi va sepi, shuningdek, urf-odatlarning zamonaviy sharoitda qayta shakllanishi ko‘rib chiqiladi.

Xronologik chegara 1950-yillardan 2020-yillarning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrni, hududiy doira esa quyi Qashqadaryoning Mirishkor va Muborak tumanlari hamda ularga tutash hududlarni qamraydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot tarixiylik va xolislik tamoyillariga tayanadi. Unda qiyosiy-tarixiy, struktur-funksional va retrospektiv rekonstruksiya usullari qo‘llanildi. To‘y-marosim tsikli A. van Gennepning “o‘tish marosimlari” sxemasi asosida – ajralish, chegaraviy holat va yangi maqomga qo‘shilish bosqichlari bo‘yicha tahlil qilindi. Bu sxema turli davrlarda marosimning qaysi qismi saqlanib, qaysi qismi yo‘qolganini aniq ko‘rsatishga imkon beradi.

Manbalar asosini sovet davrining etnografik asarlari va turkman to‘ylariga oid qiyosiy tadqiqotlar tashkil etdi. «Народы Средней Азии и Казахстана» to‘plami [11], O. Jo‘raqulovning Chandir turkmanlariga oid monografiyasi [5], B.X. Karmishevaning etnik tarix tadqiqoti [10] hamda turkmanlar marosimlariga bag‘ishlangan nashrlar [14; 15; 16; 17; 20; 21] foydalanildi. To‘y folklori bo‘yicha S. Davlatovning izlanishi [4] mintaqaviy qiyos uchun ahamiyatlidir.

Tahlilda Qashqadaryo aholisining joylashuvi bo‘yicha A.A. Pardayevning tadqiqoti [7], Tojikiston turkmanlari haqidagi qiyosiy material [12] va 2019–2025-yillarda to‘ylarni tartibga solishga oid nashrlar [2; 3] hisobga olindi.

Manbalarning asosiy cheklovi shundaki, Qashqadaryo turkmanlarining oilaviy marosimlariga oid dala materiallari nashrlarda juda kam uchraydi. Shu sababli umumturkman etnografiyasidagi ma’lumotlar mahalliy kontekstga qiyosiy usulda tatbiq etildi. Bunday xulosalar maqolada gipoteza sifatida alohida belgilanadi. Ularni Mirishkor tumanining Chandir va Pomuq hamda Muborak tumanining Turkman qishlog‘ida uch avlod vakillari bilan o‘tkaziladigan yarim tuzilmali suhbatlar orqali tekshirish tavsiya etiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Etnik tarkib, urug‘-qabila tuzilishi va joylashuv

Qashqadaryo turkmanlari asosan vohaning quyi, cho‘l qismida – Qarshi cho‘li zonasida ixcham yashaydi. A.A. Pardayevning dala ma’lumotlariga ko‘ra, turkman millatiga mansub aholi Mirishkor tumanining Chandir va Pomuq hududlarida hamda Muborak tumanining Turkman qishlog‘ida istiqomat qiladi [7, b. 21]. Ochiq ensiklopedik ma’lumotlarda viloyatdagi turkmanlar soni taxminan 40,8 ming kishi, ya’ni aholining 1,1 foizi deb ko‘rsatiladi [18]. Kasbi va Muborak tumanlari aholisi tarkibida ham turkmanlar qayd etilgan [19].

Turkmanlar tarixan murakkab urug‘-qabila tuzilishiga ega bo‘lgan: XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ular 30 dan ortiq alohida qabila va yuzlab urug‘ bo‘linmalariga ajralgan [9]. Bu bo‘linish etnik o‘zlikda hozir ham muhim o‘rin tutadi: inson o‘zini avvalo turkman, so‘ngra muayyan qabila va urug‘ vakili sifatida tanitadi. Qabila mansubligi nikoh tanlovida, qarindoshlik doirasini belgilashda va to‘yda mehmonlarni joylashtirish tartibida namoyon bo‘ladi. Voha turkmanlarining qabila mansubligi masalasida O. Jo‘raqulovning “Chandir turkmanlari” asari muhim manba hisoblanadi [5]. Mirishkor tumanidagi Chandir aholi punktining nomi ham shu etnonim bilan bog‘liq. Etnonimning kelib chiqishi – masalan, uning turkmanlarning chovdur (turkm. çowdur) qabilasi nomiga aloqadorligi – hozircha munozarali bo‘lib, maxsus etnonimik tadqiqotni talab etadi. G.P. Vasilyevaning turkman etnogenezi bo‘yicha xulosalari bunday guruhlarni o‘g‘uz va o‘g‘uzgacha qatlamlarni o‘z ichiga olgan murakkab etnik jarayon mahsuli sifatida ko‘rishga imkon beradi [8].

Turkmanlar yashaydigan tumanlarning o‘zi ham tadqiqot davrida shakllangan. Kasbi tumani 1970-yilda, Muborak tumani 1978-yilda tashkil etilgan [19]. Chandir va Pomuq aholi punktlari dastlab Bahoriston tumani tarkibida bo‘lgan. 2003-yil 25-aprelda Bahoriston va Usmon Yusupov tumanlari negizida Mirishkor tumani tuzilib, Chandir va Pomuq uning tarkibiga o‘tkazilgan [1].

Quyi Qashqadaryodagi keng yaylovlar bu yerda chorvachilikning rivojlanishiga imkon bergan [7, b. 20]. Turkmanlar an’anaviy ravishda yarim ko‘chmanchi chorvachilik – qorako‘l qo‘ychiligi va tuyachilik bilan shug‘ullangan. Sovet davrida ular kolxoz va sovxozlarga birlashtirilib, o‘troq turmushga o‘tdi. Pardayevning qayd etishicha, quyi oqimdagi bir qator qishloqlar, jumladan, Mirishkor tumanidagi Jeynov aholisi chorvachilikdan o‘troq dehqonchilikka o‘tgan [7, b. 20–21]. XX asrning 70-yillaridan Qarshi cho‘lining keng ko‘lamli o‘zlashtirilishi bilan hududga boshqa joylardan aholi ko‘chib keldi va yangi sovxoz posyolkalari paydo bo‘ldi. O‘zlashtirish turkmanlarni aralash etnik muhitga olib kirdi: Mirishkor tumanining Jeynov va Kasbi tumanining Cho‘lquvar qishloqlarida arablar, Kasbi tumanining Fazli qishlog‘ida tojiklar istiqomat qiladi [7, b. 21]. Qo‘shnichilik, mehnat jamoalari va maktab bu guruhlar o‘rtasida madaniy almashinuvni kuchaytirdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida voha turkmanlari va tojiklarining bir qismi o‘z milliy davlatlariga ko‘chib ketgan, boshqa hududlardagi o‘zbeklar esa viloyatga qaytgan [7, b. 19]. 1990-yillarning ikkinchi yarmidan mehnat migratsiyasi kuchaydi. Pardayevning respondentlari xorijga ko‘pincha uy qurish, to‘y o‘tkazish va mashina olish uchun mablag‘ to‘plash maqsadida borishini aytgan [7, b. 32]. Bu holat to‘y xarajatlari oila iqtisodida qanchalik katta o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

To‘y-marosim madaniyati

Turkman to‘yi uch bosqichli o‘tish marosimi sifatida tuzilgan: qizni ota uyidan ajratish, to‘y kunlarining chegaraviy holati va kelinni yangi oilaga qo‘shish. Har bir bosqich o‘z ramziy harakatlari, maxsus kiyimi va taomlariga ega bo‘lgan.

To‘ygacha bo‘lgan marosimlar (ajralish bosqichi). Kelishuvdan so‘ng ikki oila quda bo‘ladi va to‘y muddati belgilanadi. Kelishuv sovg‘alari ro‘molga tugib olib boriladi; ro‘mol butun to‘y davomida sovg‘a, bezak va ramz vazifasini bajaradi [20]. An’anaviy sepning yadrosini qizning o‘zi to‘qigan buyumlar – gilam, xurjun va qoplar, eshik pardasi hamda to‘y tuyasining bezaklari tashkil qilgan [15]. XX asr ikkinchi yarmida qo‘lda to‘qilgan buyumlar o‘rnini asta-sekin sotib olinadigan mato, mebel va maishiy texnika egalladi, gilam esa sepning sharafli qismi bo‘lib qoldi. Kelin libosi kuyov tomoni sovg‘a qilgan matodan, xayrli deb hisoblangan kunda bichilgan; bichishni ko‘p farzandli, hurmatli ayol bajargan, qizning dugonalari esa matoning qiyqimlarini baxt tilab olib ketgan [17].

To‘y kunlari (chegaraviy bosqich). An’anaviy to‘y uch kun davom etib, kuyov uyi yonida o‘tov tikishdan boshlangan; tong saharda katta qozonlarda palov va qo‘y hamda mol go‘shtidan sho‘rvalar tayyorlangan [16]. Ilgari kelin tuya ustidagi yopiq kajavada (turkm. kejebe) kuyov uyiga olib borilgan. Kajava gumbazsimon karkasi bilan o‘tovni takrorlagan, uni yamoqli matolar va baxt keltiruvchi ramzlar bezagan; ortidan qarindoshlar bezatilgan tuyalarda karvon bo‘lib borgan [14]. Keyinchalik kajava o‘rnini otlar karvoni, bugungi kunda esa bezatilgan avtomobillar egalladi [16]. Turkman kelinining to‘y kiyimi kumush osma bezaklarga boy bo‘lib, ular nafaqat bezak, balki tumor vazifasini ham bajargan [17]. Libos kompleksiga dubulg‘asimon kumush bosh kiyim – gupba, ko‘krak taqinchog‘i, og‘izni yopuvchi yashmoq va kelinni ko‘z tegishidan asraydigan kashtali yopinchiq – kürte kirgan [16]. Aynan bu libos kompleksi hozir ham turkman to‘yining eng ko‘zga tashlanadigan etnik belgisi bo‘lib qolmoqda. Nikohni mulla o‘qigan. Sovet davrida diniy nikoh rasman tan olinmagan va FHDYoda ro‘yxatdan o‘tish yagona huquqiy shaklga aylangan; amalda esa ikkala shakl yonma-yon yashagan. Mustaqillik yillarida nikoh o‘qish ochiq va ommaviy tus oldi, mahr esa uning markaziy unsuri bo‘lib qoldi [13]. To‘y kunlari baxshi (turkm. bagşy) ijrosi, kurash va ot poygalari bilan o‘tgan; bu tomoshalar to‘yni butun jamoa bayramiga aylantirgan.

To‘ydan keyingi marosimlar (qo‘shilish bosqichi). Kelin salom marosimida kelin yangi oilaning kattalariga ta’zim qiladi, ular esa kelinga duo va sovg‘a beradi. Turkman to‘yining eng o‘ziga xos unsurlaridan biri – qaytarma (turkm. gaýtarma). Qalin to‘liq to‘langan bo‘lsa ham, yosh kelin muayyan vaqt ota-onasi uyida yashashi shart bo‘lgan; bu davrda u gaýtarma (“qaytarilgan”) yoki çuwalgyz deb atalgan [11]. Ayrim hududlarda to‘ydan uch kun o‘tib kelin ota uyiga qaytarilgan va qalin to‘liq to‘lanmaguncha er uyiga qo‘yib yuborilmagan [21]. Qaytarmaning birinchi kuni kelinning ota uyida ziyofat berilgan; kelin qaynonasi huzurida boshqa libosga – mayda yo‘l-yo‘l qizil to‘nga kiyintirilgan, er uyiga esa to‘q yashil yopinchiqda qaytgan [17]. Tadqiqotchilar qaytarmani matrilokal va patrilokal nikoh joylashuvi o‘rtasidagi o‘tish bosqichining qoldig‘i deb talqin qiladi. XX asr o‘rtalaridayoq bu odat qoldiq shaklda – kelinning ota uyiga bir necha kunlik tashrifi ko‘rinishida saqlangani qayd etilgan [11]. Shunday qilib, qaytarma real iqtisodiy-huquqiy funksiyasini yo‘qotib, kelin va uning ota oilasi o‘rtasidagi aloqani ramziy tasdiqlovchi marosimga aylangan.

Qashqadaryo o‘zbeklarining to‘y marosimlari va ularning folklori boy an’anaga ega [4]. Aralash yashash sharoitida voha turkmanlari to‘yida mintaqaviy o‘zbek unsurlari (maslahat oshi, kelin salom tartibi) va turkman unsurlari (kelin libosi, yashmoq, qaytarma qoldig‘i) uyg‘unlashgan bo‘lishi ehtimoli katta. Bu uyg‘unlashuvning aniq tarkibi dala tadqiqotlari orqali aniqlanishi kerak.

Mustaqillik davridagi eng muhim yangilik – to‘ylarning davlat tomonidan tartibga solinishi bo‘ldi. 2019-yil 14-sentabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlari to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni tartibga solish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida qo‘shma qaror qabul qildi; uning asosiy talablari 2020-yil 1-yanvardan amal qila boshladi [2]. 2025-yil sentabrida e’lon qilingan Vazirlar Mahkamasining 589-son qarori oilaviy tadbirlarda mehmonlar sonini 200 nafargacha, osh marosimida 250 nafargacha chekladi hamda “kuyov navkari”, “ota ko‘rdi”, “sep yoydi”, pul tarqatish va mato ulashish kabi odatlarni taqiqladi [3]. Bu siyosat turkman to‘yi uchun ikki xil oqibatga ega. Bir tomondan, u to‘y xarajatlarini kamaytirib, qalin va sepning raqobatli “ko‘rsatish” funksiyasini zaiflashtiradi; Xatlon turkmanlari tajribasi bunday cheklovlar qalin miqdorini ikki baravardan ko‘proq kamaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi [12]. Ikkinchi tomondan, “sep yoydi” kabi taqiqlar turkmanlarda etnik ma’no tashigan unsur – qiz qo‘lida to‘qilgan sepni namoyish etishni ham jamoat maydonidan oilaviy doiraga chiqaradi.

Tahlil natijalari voha turkmanlari to‘y madaniyatida uch qatlamni ajratishga imkon beradi:

– Arxaik (islomgacha) qatlam – tumor vazifasidagi kumush bezaklar, kelinni ko‘z tegishidan himoya qilish, kajava-o‘tov ramzi, qaytarma, yashmoq va nom tabusi. Bu qatlam eng ko‘p o‘zgargan: unsurlar real funksiyasini yo‘qotib, ramziy shaklda saqlanmoqda.

– Islomiy qatlam – nikoh o‘qish va mahr. Sovet davrida yashirin saqlangan bu qatlam mustaqillik yillarida tiklanib, eng barqaror qismga aylandi.

– Sovet va postsovet qatlami – FHDYoda ro‘yxatdan o‘tish, to‘yxonalar, davlat reglamenti. Bu qatlam eng dinamik bo‘lib, to‘yning tashqi shaklini belgilaydi.

Turkman o‘zligini ko‘rsatuvchi unsurlar sifatida kelin libosi (kürte, gupba, kumush taqinchoqlar), gilam va to‘qima sep, baxshi ijrosi va turkman tilidagi qo‘shiqlar hamda urug‘ mansubligiga e’tibor saqlanmoqda. Dasturxon tartibi, to‘yxona formati, mehmonlar ro‘yxati va marosimlar jadvali esa mintaqaviy o‘zbek to‘y madaniyati bilan tobora yaqinlashmoqda. Madaniy markaz tadbirlari etnik unsurlarni sahnaviy-namoyishkorona shaklda qayta jonlantirib, ularning ramziy qiymatini oshirmoqda [6].

XULOSA

Qashqadaryo turkmanlari vohaning quyi, cho‘l qismida – Mirishkor va Muborak tumanlarida ixcham yashovchi, chorvachilik an’analari va murakkab urug‘-qabila tuzilishiga ega etnik guruhdir. Ularning etnografiyasiga oid ma’lumotlar tarqoq bo‘lib, O. Jo‘raqulovning 1992-yilgi monografiyasidan keyin maxsus tadqiqot olib borilmagan.

To‘yning uch bosqichli tuzilmasi saqlangan, biroq kajava, haqiqiy qaytarma va qizning qo‘lda to‘qigan sepi kabi unsurlar yo‘qolgan yoki ramziy shaklga o‘tgan. Kelin libosi, gilam sepi va baxshi ijrosi turkman to‘yining asosiy etnik markerlari bo‘lib qolmoqda.

O‘zgarishlarni to‘rt asosiy omil belgiladi: sovet oila-huquq tizimi va o‘troqlashuv; Qarshi cho‘lining o‘zlashtirilishi va aralash etnik muhit; mustaqillik davridagi migratsiya; to‘ylarni davlat tomonidan tartibga solish.

Voha turkmanlarining oilaviy marosimlarida ramziy yadro saqlanib, iqtisodiy va huquqiy shakl tubdan yangilanmoqda. Bu jarayon assimilyatsiya emas, balki etnik o‘zlikni yangi shakllarda qayta ishlab chiqarish sifatida baholanishi kerak.

Tavsiyalar: Mirishkor va Muborak tumanlarida to‘y bosqichlari, kelin libosi, sep buyumlari va baxshi ijrosini audio-video qayd etuvchi dala-etnografik tadqiqotlar o‘tkazish; mahalliy turkman marosim unsurlarini madaniy meros sifatida hujjatlashtirish imkoniyatini mutaxassislar va Turkman madaniy markazi bilan birgalikda ko‘rib chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 25-apreldagi 485-II-son qarori (Qashqadaryo viloyatida Mirishkor tumanini tuzish haqida). URL: https://lex.uz/docs/-88365

2. To‘y-hashamlarni o‘tkazish tartibini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilanishi mumkin // Kun.uz. 2020-yil 19-fevral. URL: https://kun.uz/news/2020/02/19/toy-hashamlarni-otkazish-tartibini-buzganlik-uchun-mamuriy-javobgarlik-belgilanishi-mumkin
3. Yakupova U. To‘y va marosimlar ustidan nazorat kuchaytirilmoqda: endi nechtagacha mehmon chaqirish mumkin? // Anhor.uz. 2025-yil 22-sentabr. URL: https://anhor.uz/uzl/news/endi-nechtagacha-mehmon-chaqirish-mumkin/
4. Davlatov S. Qashqadaryo vohasi o‘zbek to‘y marosimlari folklori: filol. fan. nomz. … diss. avtoref. – Toshkent, 1996.
5. Jo‘raqulov O. Chandir turkmanlari. – Toshkent: Fan, 1992. – 234 b.
6. Omonov A. Qardosh xalq bilan ezgu maqsadlarimiz yangi bosqichda // Yangi O‘zbekiston. 2022-yil 18-iyul. URL: https://yuz.uz/uz/news/qardosh-xalq-bilan-ezgu-maqsadlarimiz-yangi-bosqichda
7. Pardayev A.A. Qashqadaryo vohasi aholisining kundalik hayoti va ijtimoiy turmush sharoiti (1985–2021 yy.): tarix fan. dok. (DSc) … diss. avtoref. – Nukus, 2026. – 80 b.
8. Васильева Г.П. Этнографические данные о происхождении туркменского народа // Советская этнография. – 1964. – № 6. – С. 86–98.
9. Винников Я.Р. Новое в семейном быту колхозников Туркменистана // Советская этнография. – 1967. – № 6. – С. 32–42.
10. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – М.: Наука, 1976. – 323 с.
11. Народы Средней Азии и Казахстана. Т. II / Под ред. С.П. Толстова и др. – М.: Изд-во АН СССР, 1963. – 779 с.
12. Ethnic Turkmen of Tajikistan Preserve Traditions of Their Ancestors // CABAR.asia. 2019, 14 June. URL: https://cabar.asia/en/ethnic-turkmen-of-tajikistan-preserve-traditions-of-their-ancestors
13. Islamic Marriage in Kazakhstan and Uzbekistan: A Comparative Study of Legal Framework // Manchester Journal of Transnational Islamic Law & Practice. – 2025. – Vol. 21, No. 1. – P. 317 ff.
14. Weddings // World Quilts: The Central Asian Story. International Quilt Museum. URL: https://worldquilts.quiltstudy.org/centralasianstory/node/10
15. Camel Trapping from Turkmenistan // The George Washington University Museum and The Textile Museum. URL: https://collectionstories.museum.gwu.edu/?p=411
16. Turkmen Wedding Traditions — Farewell to the Bride // Ayan Travel. URL: https://ayan-turkmenistan.travel/turkmen-wedding-traditions-farewell-to-the-bride.html

17. Свадебные традиции. Платье // Advantour. URL: https://www.advantour.com/rus/turkmenistan/traditions/dress.htm
18. Qashqadaryo viloyati // Vikipediya. URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Qashqadaryo_viloyati
19. Kasbi tumani; Muborak tumani // Vikipediya. URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Kasbi_tumani; https://uz.wikipedia.org/wiki/Muborak_tumani
20. Туркменские обряды хранят народные традиции // Worlds.ru. URL: https://www.worlds.ru/history/turkmenistan/turkmenskie_obrjady_khranjat_narodnye_traditcii
21. Туркмены / Отв. ред. Н.А. Дубова; Ин-т этнологии и антропологии им. Н.Н. Миклухо-Маклая РАН. – М.: Наука, 2016. – 635 с. – (Народы и культуры).